

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/359459170>

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix)

Book · March 2022

CITATIONS

0

READS

14,083

2 authors, including:



[Nozim Muminov](#)

ALFRAGANUS UNIVERSITY

169 PUBLICATIONS 64 CITATIONS

SEE PROFILE

**MUMINOV N.G.
XOLMATJONOV F.M.**



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI – I

(Iqtisodiy tarix)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MUMINOV N.G., XOLMATJONOV F.M.

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI – I

(Iqtisodiy tarix)
Uslubiy qo'llanma



Toshkent
2022



Muminov N.G., Xolmatjonov F.M. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix). Uslubiy qo'llanma. –T.: “Universitet”, 2022, 76-bet

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix) uslubiy qo'llanmasi “Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun fanni qo'shimcha (yoki qayta) o'zlashtirish imkonini beruvchi uslubiy qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Uslubiy qo'llanma professor-o'qituvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda har bir mavzuning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, mavzuning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar vazifalari, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar bayon qilingan.

Методическое пособие “История экономических учений – I (Экономическая история) рекомендовано как пособие студентам направления образования экономика для дополнительного усвоения предмета. Методическое пособие предназначен для преподавателей и студентов, в нем описаны цели каждой темы, методы проведения занятий и их использование, содержание тем, задачи по практическим занятиям, дополнительные занятия и другие.

The methodological manual “History of economic doctrines-I” (Economic history) is recommended as a manual for students of the direction of education in economics for additional mastering of the subject. The methodology manual is intended for teachers and students; it describes the goals of each topic, methods of conducting classes and their use, the content of the topics, tasks for practical exercises, additional classes and others.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021 yil “21” noyabrdagi 3-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Mas'ul muharrir:

Umarov A.T. - O'zMU Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

Mambetjanov Q.Q. - O'zMU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti, i.f.d.

Xashimova N.A. - Toshkent Davlat Transpor universiteti professori, i.f.d.

© O'zbekiston Milliy universiteti



KIRISH

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix) uslubiy qo'llanmada barcha mavzular bo'yicha u yoki bu turdagi topshiriq va vazifalar mavjud. Uslubiy qo'llanmada mavzular bo'yicha testlar, "To'g'ri – noto'g'ri" savollari, mantiqiy savollar, referat mavzulari, esse mavzulari, oraliq nazorat savol variantlari, yakuniy nazorat savol variantlari majmuasi mujassamlashgan. Talaba fan bo'yicha baho olishi uchun har bir mavzu bo'yicha u yoki bu topshiriqni bajarishi va yig'majildga solib topshirishi zarur. Fan o'qituvchisi tomonidan topshiriqlar to'liq qabul qilingandan so'ng talaba oraliq nazorat va yakuniy nazoratni topshirishlari mumkin.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix) fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- jahonda iqtisodiyotni rivojlanish bosqichlari, sanoat inqiloblari va iqtisodiy siyosat to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- har xil davrda turli mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- talaba iqtisodiy fikirlash, unga tarixiylik, keng ko'lamlilik va realizm berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Topshiriqlarni bajarish tartibi:

Testlar – test savollariga javob beriladi va kitobchani o'zida to'g'ri javob belgilanadi

"To'g'ri – noto'g'ri" savollari - "to'g'ri – noto'g'ri" savollariga javob beriladi va bo'sh katakchaga "T" – to'g'ri yoki "N" – noto'g'ri harfi qo'yiladi

mantiqiy savollar

referat - mavzularni bittasi tanlanadi, A4 formatli qog'ozga 10-15 bet hajmda referat yoziladi.



esse - mavzularni bittasi tanlanadi, 12 varoqli daftarga yoki A4 formatli qog'ozga qo'lyozma usulda 5 bet hajmda ijodiy ish yoziladi.

nazorat savollari - 12 varoqli daftarga savollarning barchasiga javob yoziladi

oraliq nazorat – dekanat tomonidan muhr urilgan 12 varoqli daftarga variantni javoblarini yoziladi

yakuniy nazorat - dekanat tomonidan muhr urilgan 12 varoqli daftarga variantni javoblarini yoziladi

klaster - A4 formatli qog'ozga klaster chiziladi

Barcha vazifalar (daftarda bajarilgani, A4 formatli qog'ozda bajarilgani va topshiriq kitobchasida bajarilgani) talabaning ismi-sharifi qayd etilgan yig'majildga to'plab topshiriladi.



1-MAVZU. JAHON IQTISODIY TARIXINI O'RGANISH YO'NALISHLARI.

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda jahon iqtisodiy tarixini o'rganish yo'nalishlari bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Iqtisodiy tarixning qisqacha izohi. Iqtisodiy tarixning metodlari, predmeti va vazifalari. Iqtisodiy tarixning manbasi va strukturasi.

Vazifa – 1

(testlarni yeching)

1. XX asrning boshlarida iqtisodiyot tarixi bo'yicha ma'ruzalar to'liq holda... kabi qadimgi va nufuzli universitetlarida o'qilardi.

- a) Stokgolm va Uppsal;
- b) Edinburg va Glazgo;
- c) Britaniyaning Oksford va Kembrij;
- d) Parij shahrida iqtisodiyot va sotsiologiya tarixi instituti va Lion universiteti.

2. Iqtisodiy tarix fani kishilik jamiyati rivojlanishini tadqiq etishda quyidagi uch yo'nalishga asoslanadi:

- a) iqtisodiy g'oyalar tarixi, iqtisodiyot nazariyasi, aniq iqtisodiyot;
- b) matematika, tarix, iqtisodiyot nazariyasi;
- c) tarix, iqtisodiyot nazariyasi, aniq iqtisodiyot;
- d) butun dunyo iqtisodiy tarixi, matematika, iqtisodiyot nazariyasi.

3. «XVIII asrda Angliyada sanoat to'ntarilishi» (1884 y.) kitobi muallifini ko'rsating:

- a) Fyustel de Kulanj Numa Deni;



- b) Arnold Toynbi;
- c) Mark Blok;
- d) Yozef Aloiz Shumpeter.

4. «Germaniyaning XIX asr va XX asr boshlarida xalq xo'jaligi» asari muallifini ko'rsating:

- a) Verner Zombart;
- b) Maks Veber;
- c) Karl Byuxer;
- d) Fernan Brodel.

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob)

No	Savollar	
1.	“Iqtisodiy tarix” fani G'arbiy Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan shiddatli iqtisodiy jarayonlar ta'sirida yuzaga kelgan	
2.	XIX asrning boshlarida iqtisodiyot tarixi bo'yicha ma'ruzalar to'liq holda Britaniyaning Oksford va Kembridj kabi keksa va imtiyozli universitetlarida o'qilardi	
3.	Iqtisodiy tarix kishilik jamiyati rivojlanishini tadqiq etishda uch yo'nalishga asoslanadi	
4.	Keng ma'noda iqtisodiy tarix fanida turli mamlakatlarning aholisining xo'jalik faoliyati, ulardagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish xususiyatlarining o'zgarib borishi predmet sifatida o'rganiladi.	
5.	Tor ma'noda iqtisodiy tarix fani turli mamlakatlarning aholisining xo'jalik faoliyati, ulardagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish xususiyatlarining o'zgarib borishi predmet sifatida o'rganadi.	



Vazifa – 2

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	“Iqtisodiy tarix” fani Sharqiy Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan shiddatli iqtisodiy jarayonlar ta’sirida yuzaga kelgan	
2.	XX asrning boshlarida iqtisodiyot tarixi bo’yicha ma’ruzalar to’liq holda Britaniyaning Oksford va Kembridj kabi kekxa va imtiyozli universitetlarida o’qitilgan	
3.	Iqtisodiy tarix kishilik jamiyati rivojlanishini tadqiq etishda faqat bir yo’nalishga asoslanadi	
4.	Keng ma’noda iqtisodiy tarixning predmetlari jamiyatning «iqtisodiy harakati», uning o’zgarishi xususiyatlari, bunday harakatlarning transformatsion qonuniyatlari, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan bo’lgan aloqalaridan iborat bo’ladi	
5.	Tor ma’noda iqtisodiy tarix fanida turli mamlakatlarning aholisining xo’jalik faoliyati, ulardagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish xususiyatlarining o’zgarib borishi predmet sifatida o’rganiladi.	

(testlarni yeching)

1. Kelib chiqishi avstriyalik bo’lgan yirik amerikalik iqtisodchi va sotsiolog olimni toping.

- a) Fernan Brodel;
- b) Maks Veber;
- c) Karl Byuxer;
- d) Yozef Aloiz Shumpeter.



2. Karl Byuxer o'zining asosiy asari «Xalq xo'jaligining paydo bo'lishi»da iqtisodiy jarayonlarni ... bosqichga bo'lib, xo'jalik rivojlanishining xususiy rejasini olg'a surgan.

- a) ikki;
- b) to'rt;
- c) uch;
- d) besh.

3. Karl Byuxer o'zining asosiy asari «Xalq xo'jaligining paydo bo'lishi»da iqtisodiy jarayonlarni uch bosqichga quyidagi ketma-ketlikda bo'lgan:

- a) «xalq xo'jaligi» -«uy xo'jaligi» -«shahar xo'jaligi».
- b) «uy xo'jaligi» -«shahar xo'jaligi» -«xalq xo'jaligi».
- c) «shahar xo'jaligi» -«uy xo'jaligi» -«xalq xo'jaligi»
- d) «uy xo'jaligi» -«xalq xo'jaligi» -«shahar xo'jaligi».

4. Yangi iqtisodiy tarixning sintezi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tahlili sifatida...

- a) XX asrning 70-yillarida iqtisodiy tarixda yangi yo'nalish vujudga keldi;
- b) XIX asrning oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi;
- c) XX asrning 60-yillarda iqtisodiy tarixda yangi yo'nalish vujudga keldi;
- d) XIX asr boshlarida vujudga keldi.

Vazifa – 3

Referat mavzulari:

1. Iqtisodiy tarixning metodologiyasini yoritib bering.
2. Iqtisodiy tarixning iqtisodiy fanlarni o'zlashtirishdagi roli.
3. Iqtisodiy tarix va Iqtisodiyot nazariyasining bog'liq jihatlari.
4. Iqtisodiy tarixning fan sifatida rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan olimlar va ularning hayoti.



Vazifa – 4

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy tarix fanining predmeti va metodi.
2. Iqtisodiy tarix fanining strukturasi va davrlarga bo'linishi.
3. Iqtisodiy tarixni davrlashtirishda nimalarga e'tibor beriladi.
4. Burjuaziya tarixografiyasini ta'riflang.

Vazifa – 1 javoblar:

Test: 1-c. 2-c. 3-b. 4-a.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	N	T	N	T

Vazifa – 2 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	N	T	N

Test: 1-d. 2-c. 3-b. 4-a.



2-MAVZU. QADIMGI DUNYO IQTISODIYOTINING RIVOJI.

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda qadimgi dunyo iqtisodiyotining rivoji bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Qadimgi Gretsiya rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Qadimgi Rim iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi sharq davlatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar. Shoxruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar.

Vazifa – 1

Referat mavzulari:

1. Buyuk ipak yo'lining iqtisodiy-tarixiy ahamiyati.
2. Amir Temur boshqaruvidagi davlatning iqtisodiy jihatlari.
3. Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimning iqtisodiy rivojlanish omillari.

Vazifa – 2

Klassterlarni bajaring :

1.

Buyuk ipak yo'lining
iqtisodiy ahamiyatini
yo'qotishi sabablari.



2.

Amir Temur
davlatining soliq
tizimidagi afzalliklar.

Vazifa – 3

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

№	Savollar	
1.	Ipak yo‘li orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yo‘li» nomi bilan shuhrat qozongan.	
2.	Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoyga ipak, xitoydan esa har xil gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan	
3.	Buyuk ipak yo‘li, Tinch okeani atrofidagi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya) ni Vizantiya va G‘arbiy Yevropa bilan chambarchas bog‘lar edi.	
4.	Amir Temur davrida savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 20 foiz narx qo‘yish mumkin bo‘lgan.	
5.	Gretsiyaning mustamlakachilik harakati uning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirdi	

(testlarni yeching)

1.Temuriylar davrida yerga egalikning Tarxon ko‘rinishining ma’nosi nima?

a) Unumdor, sermahsul yerlar.

b)masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlar.



c) Katta hajmdagi davlat tomonidan ajratib beriladigan, bir avloddan ikkinchisiga o'tadigan yerlar.

d) Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

2. Qadimgi Gretsiyada ibtidoiy jamoa ishlab chiqarishi tuzumining parchalanishi va quldorlik munosabatlari shakllanishi jarayoni qanday davr nomini olgan?

a) Polis

b) Gomer

c) Fratriy

d) Demos

Vazifa – 4

(testlarni yeching)

Qadimgi davrda karvonlar Buyuk ipak yo'lini qancha davrda bosib o'tishgan?

a) 200-250 kunda

b) 120-150 kunda

c) 250-300 kunda

d) 300-350 kunda

Temuriylar davrida savdogarlarga olib kelingan mol ustiga necha foiz ustama qo'yishga ruxsat berilgan?

a) 15

b) 20

c) 5

d) 10

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	Ipak yo'li juda uzun yo'l bo'lganligi sababli «Ipak yo'li» nomi bilan atalgan.	
2.	Buyuk ipak yo'li karvon yo'li orqali Xitoydan ipak, xitoyga esa har xil gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va	



	dorivorlar keltirilgan	
3.	Buyuk ipak yo'li, Tinch okeani atrofidagi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya) ni Turkiya va Sharqiy Yevropa bilan chambarchas bog'lar edi.	
4.	Amir Temur davrida savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo'yish mumkin bo'lgan.	
5.	Gretsiyaning mustamlakachilik harakati uning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini pasaytirdi	

Vazifa – 3 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	N	T	N	T

Test: 1-d. 2-b.

Vazifa – 4 javoblar:

Test: 1-b. 2-d.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	N	T	N



3-MAVZU. O'RTA ASRLARDA YEVROPANING IQTISODIY RIVOJLANISHI.

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda o'rta asrlarda Yevropaning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: V-X asrlarda G'arbiy Yevropada feodalizmning rivojlanish xususiyatlari. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada qishloq xo'jaligi. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feodal shahar, xunarmandchilik va savdo sotiq. Yevropada kapitalistik ishlab chiqarish kurtaklari vujudga kelishi. Buyuk geografik kashfiyotlar. Yevropada «narxlar revolyutsiyasi». Jahon bozorining vujudga kelishi.

Vazifa – 1 (testlarni yeching)

1.Kotgerlar bu....

- a)Dexqonning yerdan foydalanganlik uchun soliqning pul shaklidagi turi
- b)qishloq xo'jaligining 30 akrgacha yeri bo'lgan va o'z ish quroli hamda ho'kiziga ega bo'lgan dehqonlar sinfi
- c)feodalning homiyligida bo'lib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar.
- d) kichkina yeriga ega bo'lgan yoki umuman yeri bo'lmagan dehqonlar.

2.1381 yili Angliyada Uot Tayler kimlar qo'zg'oloniga boshchilik qildi?

- a)yollanma ishchilar
- b)harbiylar
- c)qullar
- d) dehqonlar



3.V asrda G'arbiy Yevropada quyidagi ijtimoiy tizimlar shakllangan:

- a)antik quldorlik tizimi va boshlang'ich asrlar
- b)antik quldorlik tizimi va varvar quldor qabilalar tizimi
- c)varvar quldor qabilalar tizimi va ilk o'rta asrlar
- d)yuqori o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlar

4.Quyidagilarning qaysi biri feodalizm tarixini davrlashtirish turkumiga kirmaydi:

- a)Ilk o'rta asrlar V-IX asrlar
- b)Boshlang'ich asrlar V-IX asrlar
- c)Yuqori o'rta asrlar X-XIII asrlar
- d)So'nggi o'rta asrlar XIV-XVII asrlar

5.Ilk o'rta asrlarda ...

- a)qishloq xo'jaligida ish qurollarining takomillashishi ro'y berdi
- b)minglab shaharlar paydo bo'ldi va ularning ko'pchiligi o'zini-o'zi boshqarishga o'tdi
- c)er yuqori tabaqa vakillari o'rtasida taqsimlanishi yuzaga kela boshladi
- d)dehqonlarning shaxsiy ozodlikka erishishi jarayoni ro'y bera boshladi

6.Yuqori o'rta asrlarda ...

- a)minglab shaharlar paydo bo'ldi va ularning ko'pchiligi o'zini-o'zi boshqarishga o'tdi
- b)er yuqori tabaqa vakillari o'rtasida taqsimlanishi yuzaga kela boshladi
- c)ilk kapitalizmning alomatlari paydo bo'ldi
- d)dehqonlarning shaxsiy ozodlikka erishishi jarayoni ro'y bera boshladi

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropa feodalizmi tugallangan	



	yetuk shakllarga ega bo'ldi	
2.	XI-XV asrda feodal tarqoqlik o'z o'rnini markazlashgan feodal davlatlarga bo'shatib berdi. Ulardan eng yiriklari Italiya va Germaniya edi	
3.	Villanlar - qishloq xo'jaligining 30 akrgacha yeri bo'lgan va o'z ish quroli hamda xo'kiziga ega bo'lgan dehqonlar sinfi	
4.	Kotgerlar - qishloq xo'jaligining 30 akrgacha yeri bo'lgan va o'z ish quroli hamda ho'kiziga ega bo'lgan dehqonlar sinfi	
5.	Venetsiya floti Genuya flotini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng O'rta yer dengizi hududida birinchilik Venetsiya tomoniga o'tdi	

Vazifa – 2

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob bering)

№	Savollar	
1.	XV-XVII asrlarda G'arbiy Yevropa feodalizmi tugallangan yetuk shakllarga ega bo'ldi	
2.	XI-XV asrda feodal tarqoqlik o'z o'rnini markazlashgan feodal davlatlarga bo'shatib berdi. Ulardan eng yiriklari Fransiya va Angliya edi	
3.	Villanlar - kichkina yerga ega bo'lgan yoki umuman yeri bo'lmagan dehqonlar	
4.	Kotgerlar - qishloq xo'jaligining 30 akrgacha yeri bo'lgan va o'z ish quroli hamda ho'kiziga ega bo'lgan dehqonlar sinfi	
5.	Genuya floti Venetsiya flotini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng O'rta yer dengizi hududida birinchilik Genuya tomoniga o'tdi	



(testlarni yeching)

1. Soʻnggi oʻrta asrlarda ...

- a) ilk kapitalizmning alomatlari paydo boʻldi
- b) minglab shaharlar paydo boʻldi va ularning koʻpchiligi oʻzini-oʻzi boshqarishga oʻtdi
- c) er yuqori tabaqa vakillari oʻrtasida taqsimlanishi yuzaga kela boshladi
- d) qishloq xoʻjaligida ish qurollarining takomillashishi roʻy berdi

2. Kolonlar – bu...

- a) shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida boʻlgan dehqonlar
- b) shaxsan va yer qaramligida boʻlganlar
- c) feodalning homiyligida boʻlib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar
- d) shaxsan erkin, ammo yer qaramligida boʻlganlar

3. Chorakorlar – bu...

- a) shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida boʻlgan dehqonlar
- b) shaxsan va yer qaramligida boʻlganlar
- c) feodalning homiyligida boʻlib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar
- d) shaxsan erkin, ammo yer qaramligida boʻlganlar

4. Qul-servlar – bu...

- a) shaxsan erkin, ammo yer qaramligida boʻlganlar
- b) shaxsan va yer qaramligida boʻlganlar
- c) feodalning homiyligida boʻlib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar
- d) shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida boʻlgan dehqonlar

5. Litlar – bu...

- a) feodalning homiyligida boʻlib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar
- b) shaxsan va yer qaramligida boʻlganlar
- c) shaxsan erkin, ammo yer qaramligida boʻlganlar
- d) shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida boʻlgan dehqonlar

6. Villanlar – bu...



- a)shaxsan va yer qaramligida bo'lganlar
- b)feodalning homiyligida bo'lib, yer ulushidan merosga qoldirish huquqi bilan foydalanuvchilar
- c)shaxsan erkin, lekin yer va suv qaramligida bo'lgan dehqonlar
- d)shaxsan erkin, ammo yer qaramligida bo'lganlar

Vazifa – 3

Nazorat savollari:

1. G'arbiy Yevropada feodalizmning shakllanishini xususiyatlari nimadan iborat?
2. Angliyada Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'olonining sabablari nimada?
3. G'arbiy Yevropada hunarmandchilikni qishloq xo'jaligidan ajralishi qanday natijalarga olib keldi?
4. Ganza ittifoqining asosiy vazifalari nimadan iborat?
5. Shimoliy Italiyadagi shahar-respublikalarning rivojlanish xususiyatlari nimadan iborat?

Vazifa – 4

Esse mavzulari:

- 1.Buyuk geografik kashfiyotlarning G'arbiy Yevropa iqtisodiyotiga ta'siri.
2. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropadagi muhim iqtisodiy o'zgarishlar.
3. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropada feodal shahar, hunarmandchilik va savdo sotiq.
4. Jahon bozorining vujudga kelishi va uning bugungi holati.



Vazifa – 1 javoblar:

Test: 1-d. 2-d.3-b. 4-b. 5-c. 6-a.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	N	T	N	T

Vazifa – 2 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	N	T	N

Test: 1-a. 2-d.3-d. 4-b. 5-a. 6-c.



4-MAVZU. YANGI DAVRDA INDUSTRIAL TIZIMNI VUJUDGA KELISHI (XVIII asr).

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda yangi davr (XVIII asr)da industrial tizimni vujudga kelishi bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Davrning umumiy tavsifi. Angliya – sanoat inqilobining vatani. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari. Germaniyaning iqtisodiy qoloqligi sabablari.

Vazifa – 1

Nazorat savollari:

1. Burjuaziya va yollanma ishchilar sinflarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari?
2. Sanoat to'ntarilishining shart-sharoitlari nimalardan iborat?
3. Buyuk Fransuz inqilobining iqtisodiy zamini nimada?
4. Germaniya siyosiy tarqoqligining iqtisodiy oqibatlarini nimada?

Vazifa – 2

Esse mavzulari:

1. Yangi davrda Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
2. Angliya sanoat inqilobining vatani va sanoat to'ntarilishining shart-sharoitlari.
3. Buyuk fransuz inqilobi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Vazifa – 2 javoblar:

Vazifa – 3

(testlarni yeching)

1. XVIII asrda G'arbiy Yevropa iqtisodiy jihatdan qaysi tarmoqlari rivojlanish sur'atlari bo'yicha namuna bo'ldi?

a) Qishloq xo'jaligi



- b)Qurilish
- c)Sanoat
- d)Aloqa

2.Angliya ilmiy tadqiqotlarga va ixtirolarni amaliyotga joriy etishga yetarli bo'lgan kapital qaysi hisobdan olingan?

- a)Qullar mehnatidan keladigan foyda xisobiga
- b)Davlat qarzi,soliq stavkasini oshirilishi, ishlab chiqarish va savdoni kengaytirilishi
- c)Mustamlakachilik tovarlarini qayta sotish hisobidan
- d)Eksport maxsulotlaridan keladigan foydadan

3.Sanoat to'ntarilishi – bu..

- a)mamlakatda fabrika-zavodlarni qisqartirish, faqat tabiiy yer unumdorligidan foydalanish
- b)sanoatlashtirishni kamaytirish, qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishlarni ko'paytirish
- c)qullar, qochoq dehqonlar qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish ishlarini ko'paytirish
- d)qo'l mehnatiga asoslangan manufakturadan sanoat burjuaziyasi va sanoat proletariatini shakllanishi bilan birgalikda amalga oshadigan fabrika-zavod ishlab chiqarishiga o'tish

4.XVIII asrning o'rtalarida Fransiyada qaysi sanoat tarmog'i rivoj topdi?

- a)Mashinasozlik
- b)Og'ir sanoat
- c)Metallurgiya
- d)Yengil sanoat

5.XVIII asrning ikkinchi yarmida Fransiya taraqqiyotda orqada qolishining asosiy sababi?

- a)Davlatning tadbirkorlarga soliq yukini ko'paytirishi
- b)Feodalizm sarqitlarining og'ir yuki va mavjud hukumatning konservativ siyosati
- c)Qullar, qochoq dehqonlar mehnatining samarasizligi tufayli
- d)Eksport salohiyati yaxshi kurib chiqilmaganligi sababli



6. Fransiyada aholining asosiy qismini kimlar tashkil etardi?

- a) Dehqonlar
- b) Feodallar
- c) Dvoryanlar
- d) Qullar

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XVIII asr o‘rtalariga kelib Angliyada sanoat to‘ntarishini amalga oshirish uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar mavjud edi	
2.	XVIII asr o‘rtasiga kelib Angliya yetakchi kapitalistik mamlakatga aylandi.	
3.	XVIII asrda burjuaziya – fabrikantlar va yollanma ishchilar – sanoat proletariati sinflari qisman shakllandi	
4.	Sanoat to‘ntarishi – bu qo‘l mehnatiga asoslangan holda manufakturani rivojlantirishdir	
5.	XVIII asrning o‘rtalariga qadar Fransiya Yevropada yetakchilik qilishga intildi	

Vazifa – 4

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XIX asr o‘rtalariga kelib Angliyada sanoat to‘ntarishini amalga oshirish uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar mavjud edi	
2.	XVIII asrning o‘rtalariga qadar Germaniya Yevropada yetakchilik qilishga intildi	
3.	XVIII asr o‘rtasiga kelib Germaniya yetakchi kapitalistik mamlakatga aylandi.	
4.	Sanoat to‘ntarishi – bu qo‘l mehnatiga asoslangan manufakturadan sanoat burjuaziyasi va sanoat proletariatini shakllanishi bilan birgalikda amalga	



	oshadigan fabrika-zavod ishlab chiqarishiga o'tishdir.	
5.	XVIII asrda burjuaziya – fabrikantlar va yollanma ishchilar – sanoat proletariati sinflari to'liq shakllandi	

(testlarni yeching)

1.Gabel so'zining ma'nosi bu-?

- a)Natural obrok
- b)Qirolga oid soliq
- c)Pullik obrok
- d)Tuzga solinadigan soliq

2.Shampar bu?

- a)Natural obrok
- b)Pullik obrok
- c)Qirolga oid soliq
- d)Tuzga solinadigan soliq

3.Senz bu ?

- a)Pullik obrok
- b)Qirolga oid soliq
- c)Natural obrok
- d)Tuzga solinadigan soliq

4.XVIII asrda Germaniya iqtisodiyotini kuchsizlanib borishining sabablari?

- a)Davlat qarzi, soliq stavkasini oshirilishi
- b)Yirik jahon savdosi markazi pozitsiyasining yo'qotilishi
- c)Xalq qo'zg'olonlari, ish tashlashlar
- d)Qo'shni davlatlar bilan siyosiy kelishmovchiliklar

5.Quyidagilarning qaysi biri XVII asrda Angliyada sanoat inqilobining natijasi hisoblanmaydi:

- a)erga burjua mulkini o'rnatildi
- b)kapitalistik rivojlanish oldida turgan to'siqlarni olib tashlandi
- c)almashlab ekishga o'tish amalga oshirildi
- d)milliy bozorni shakllanishini jadallashtirildi



6.Qaysi javobda XVII asrda Angliyada ilmiy tadqiqot va ixtirolarni amaliyotga joriy etishga zarur mablag‘ topish manbasi noto‘g‘ri ko‘rsatilgan:

- a)ishlab chiqarish va savdoni kengaytirilishi
- b)davlat qarzi
- c)soliq stavkasini oshirilishi
- d)bank krediti

Vazifa – 3 javoblar:

Test: 1-c. 2-b.3-d. 4-d. 5-b. 6-a.

To‘g‘ri-noto‘g‘ri

1	2	3	4	5
T	T	N	N	T

Vazifa – 4 javoblar:

To‘g‘ri-noto‘g‘ri

1	2	3	4	5
N	N	N	T	T

Test: 1-d. 2-a. 3-a. 4-b. 5-c. 6-d.



5-MAVZU. INDUSTRIAL SIVILIZASIYA SHAKLLANISHI DAVRIDA YEVRIPA IQTISODIY TARAQQIYOTI (XIX asr).

Mavzuning o'quv maqsadi: talabalarda industrial sivilizatsiya shakllanishi davri(XIX asr)da Yevropa iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli ma'ruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari. Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

Vazifa – 1 (testlarni yeching)

1.XIX asrda Angliya sanoatida qaysi tarmoq asosiy rol o'ynagan?

- a)Kemasozlik
- b)Tekstil
- c)Metallurgiya
- d)Ko'mirchilik.

2.XIX asrning 70-yillarida Angliyaning sanoat gegemonligini yo'qotishida asosiy omil?

- a)Erkin savdning tushib ketishi
- b)Kapitalning chiqib ketishi
- c)Xom-ashyo yetishmasligi
- d)Texnologik bazaning eskirganligi

3.XIX asrda Germaniyaning iqtisodiy qoloqlikdan chiqish bo'yicha asosiy muammolaridan biri?

- a)mamlakatning siyosiy tarqoqligi
- b)Kapitalning katta xajmda chiqib ketishi
- c)Xom-ashyo yetishmasligi
- d)Eksport salohiyatidan unumli foydalanilmaganligi



(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XIX asr o‘rtalariga kelib Angliya shaharlar va ishchilar shaharchalari mamlakatiga aylandi	
2.	XIX asrda Angliya sanoat rivoji bo‘yicha boshqa mamlakatlarni o‘zib o‘tib raqobatdan cho‘chimas edi	
3.	Napoleonning mamlakatlarni bosib olish siyosati harbiy sohaga xarajatlarni keskin ravishda pasayishiga olib keldi	
4.	XIX asr oxirida Germaniya imperialistik g‘oyalarni targ‘ibotini kuchaytirishini xom ashyo yetishmovchiligi va o‘z mahsulotlarini sotish bozorlari cheklanganligi bilan asosladi	
5.	XIX asr o‘rtasida dunyo bo‘yicha cho‘yan ishlab chiqarishning yarmi, toshko‘mir qazib olishning yarmidan ortig‘i Italiyaga to‘g‘ri kelardi	

Vazifa – 2

Nazorat savollari:

1. Angliyaning “jahon yuk tashuvchisi” ga aylanishi sabablari?
2. Angliyaning mustamlakachilik siyosatini mazmuni nimadan iborat?
3. Napoleon Bonopartning iqtisodiy siyosatining asosiy jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Pangerman ittifoqining g‘oyasi nimadan iborat?

Vazifa – 3

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XIX asr o‘rtalariga kelib Angliya yirik agrar mamlakatga aylandi	
2.	XIX asr o‘rtasida dunyo bo‘yicha cho‘yan ishlab chiqarishning yarmi, toshko‘mir qazib olishning	



	yarmidan ortig'i Angliyaga to'g'ri kelardi	
3.	Napoleonning mamlakatlarni bosib olish siyosati harbiy sohaga xarajatlarni keskin ravishda oshishiga olib keldi	
4.	XIX asrda Germaniya sanoat rivoji bo'yicha boshqa yevropa mamlakatlarini o'zib o'tib raqobatdan cho'chimas edi	
5.	XIX asr oxirida AQSh imperialistik g'oyalarni targ'ibotini kuchaytirishini xom ashyo yetishmovchiligi va o'z mahsulotlarini sotish bozorlari cheklanganligi bilan asosladi	

(testlarni yeching)

1.XIX asrda Germaniyada bug' mashinasini paydo bo'lishi qaysi maxsulotga bo'lgan talabni oshirib yubordi?

- a)Temir
- b)Ko'mir
- c)Mis
- d)Qalay

2.50-60 yy.da Germaniyada E.V.Simens tomonidan qanday yirik ixtirolar va ishlanmalar ixtiro qilindi?

- a)Dinamo-mashina (1867 y.) ixtiro qilinishi, hamda toshko'mirdan sun'iy bo'yoq olishni (1856 y.)
- b)Ip yigiruv uskunasi (1866y.)va bug' mashinalari(1858y.)
- c)Shamol tegirmoni(XVIII asr) va Tipografiya mashinasi
- d)Suv g'ildiragi(XVIII asr) va fosforli gugurt

Vazifa – 4

Referat mavzulari:

- 1.Industrial sivilizatsiya davrida Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi.
- 2.Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat to'ntarilishining ta'siri.



3. Napoleon Bonopartning iqtisodiy siyosati va uning Fransiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rne.

Vazifa – 1 javoblar:

Test: 1-b. 2-d.3-a.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	T	N	T	N

Vazifa – 3 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	T	N	N

Test: 1-b. 2-a.



6-MAVZU. YANGI DAVRDA AQSh (XVIII asrning oxiri - XIX asrning 70 Y.gacha).

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda yangi davrda (XVIII asrning oxiri - XIX asrning 70 y.gacha) AQSh bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Mustaqillik uchun kurash. AQShning tashkil topishi. AQShning XIX asr birinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishi. AQShda "sanoat inqilobi". Fuqarolik urushi va uning oqibatlari.

Vazifa – 1

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	Shimoliy Amerikada kapitalistik munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida Yevropa immigrantlari hisobiga yollanma ishchilar soni kamayib bordi	
2.	Amerikaga birinchi bo'lib savdo kompaniyalari vakillari kelishgan	
3.	Yevropaliliklar tomonidan Amerikani o'zlashtirilishi Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlandi	
4.	Yevropadagi doimiy ravishdagi urushlar amerika kapitalizmini jadal o'sishiga sababchi bo'ldi	
5.	XIX asrning birinchi yarmida Angliya iqtisodiyotida asosiy tarmoq bo'lib qishloq xo'jaligi hisoblanar edi.	

Vazifa – 2

Referat mavzulari:

- 1.AQShda mustaqqilik urushi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
- 2.AQShda sanoat inqilobi xususiyatlari.



3. AQShda fuqarolik urushi va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.

Vazifa – 3

Nazorat savollari:

1. Shimoliy Amerikada shakllangan uch rayonning xususiyatlari va farqli jihatlari nimada?
2. Amerikaning metropoliya bilan munosabatlari qanday shakllangan?
3. Amerikada yangi hududlarni qo'shib olish va bosib olish qanday amalga oshirildi?
4. AQShda sanoat to'ntarilishining xususiyatlari shart-sharoitlari qanday bo'lgan?

Vazifa – 4

(testlarni yeching)

1.XVIII asr oxiriga kelib Shimoliy Amerika shimoli sharqida sanoatning qaysi asosiy tarmog'i bo'lgan?

- a) Mashinasozlik
- b) Kemasozlik
- c) Metallurgiya
- d) Ko'mirchilik

2.XVIII asr oxiriga kelib Shimoliy Amerika markaziy hududida qishloq xo'jaligida qaysi tarmoq katta ulushga ega?

- a) Dehqonchilik
- b) Chorvachilik
- c) Yilqichilik
- d) Fermerlik

(“to'g'ri – noto'g'ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	Amerikaga birinchi bo'lib sayyohlik kompaniyalari vakillari kelishgan	
2.	AQShdagi doimiy ravishdagi urushlar amerika	



	kapitalizmini jadal o'sishiga sababchi bo'ldi	
3.	Shimoliy Amerikada kapitalistik munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida Yevropa immigrantlari hisobiga yollanma ishchilar soni oshib bordi	
4.	XIX asrning birinchi yarmida AQSh iqtisodiyotida asosiy tarmoq bo'lib qishloq xo'jaligi hisoblanar edi.	
5.	AQShdagi sanoat to'ntarilishining texnik shart-sharoitlari Angliyada erishilgan yutuqlar natijasida yuzaga keldi	

Vazifa – 1 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	T	T	N

Vazifa – 4 javoblar:

Test: 1-b. 2-d.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	N	T	T	T



7-MAVZU. XVIII-XIX ASRLARDA YAPONIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI.

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda XVIII-XIX asrlarda Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: XVIII asrda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari. XIX asrda Yaponiya iqtisodiyoti. Imperializmga o'tish davrida Yaponiya iqtisodiyoti.

Vazifa – 1

Nazorat savollari:

1. Ieyasuning agrar islohotining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Midzuno Tadakuni iqtisodiy islohotining asosiy maqsadi nimadan iborat edi?

Vazifa – 2

(testlarni yeching)

1.XVII asrda Yaponiyada shahar aholisining turmush darajasini o'sib borishi qaysi tarmoqning rivojlanishi bilan bog'liq?

- a)Qishloq xo'jaligi
- b)Aloqa
- c)Qurilish
- d)Sanoat

2.XVIII asrda Yaponiyada nechta manufaktura tashkil etildi?

- a)60 ta
- b)80ta
- c)70ta
- d)90 ta



3.XIX asr birinchi yarmida Yaponiyada davlat manufakturalarida kimlarning mehnatidan foydalanilardi?

- a)Qullar
- b)Qochoq dexqonlar
- c)Syogunlar
- d)Kolonlar

4.1868 yilda Yaponiya tepasiga 16 yoshlik imperator Mutsixito xukmronligi davrida qanday nomni oldi?

- a)Mitsui
- b)Syogun
- c)Iyeyasun
- d)Meydzi

5.1867 yil Yaponiya imperatori qanday siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirdi?

- a)Faoliyat va kasblarga davlat cheklovlari bekor qilindi, sex tizimi, gildiyalar va klanlar bekor qilindi
- b)Xo'jalik faoliyatida tabaqalashuv amalga oshirildi, savdo va mamlakat ichida xarakat erkinligi ta'qiqlandi.
- c)Feodal tuzum. Knyaz va samuraylarning feodal xuquqlari ta'minlandi.
- d)Davlat xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlab, saloqlarni kamaytirdi

("to'g'ri – noto'g'ri" savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XVIII asrda Yaponiya agrar mamlakat edi.	
2.	Meydzi to'ntarishi burjua inqilobi deb hisoblanib, Yaponiyani inqirozga yuz tutishiga olib keldi	
3.	Yaponiyada ichki mablag'lar hisobiga temiryo'l qurilishi boshlagan	
4.	Yaponiya o'ta qisqa muddatda sanoat inqilobini amalga oshirdi.	
5.	XVIII-XIX Yaponiyada harbiy xarajatlarning darajasi budjetning juda yuqori-36%ni tashkil qilgan.	



Vazifa – 3

Esse mavzulari:

1. Meydzi inqilobi va uning Yaponiya iqtisodiyotidagi ahamiyati.
2. XVIII - XIX asrlarda Yaponiya iqtisodiyoti.

Vazifa – 4

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	XVIII asrda Yaponiya sanoati rivojlangan mamlakat edi.	
2.	Meydzi to‘ntarishi burjua inqilobi deb hisoblanib, Yaponiyani jahondagi buyuk mamlakatlar darajasiga olib chiqdi	
3.	Yaponiya sanoat inqilobini juda uzoq vaqtda amalga oshirdi.	
4.	Yaponiya xorijiy zaymlar hisobiga temiryo‘l qurilishi boshlagan	
5.	XVIII-XIX Yaponiyada harbiy xarajatlarning darajasi budjetning juda past-3%ni tashkil qilgan.	

(testlarni yeching)

1. Imperator Mutsixito syogunlarning an’anaviy tangasi ajdarxo rasmi tushirilgan dollarga almashtirilgani nechanchi yillarga to‘g‘ri keladi?

- a) 1868y
- b) 1875y
- c) 1870y
- d) 1869y

2. 1873 y. da Yaponiyada yer solig‘i necha foiz etib tayinlangan?

- a) 20%
- b) 30%



c)40%

d)50%

3.Imperializmga o'tish davrida Yaponiya aholining qaysi qatlamini qo'llab-quvvatladi?

a)Xususiy tadbirkorlar

b)Feodallar

c)Knyazlar

d)Syogunlar

4.XIX asrning 90 yillari boshida Yaponiya xarbiy xarajatlari necha foizni tashkil etardi?

a)36%

b)38%

c)40%

d)30%

5.Yaponiyada XVIII asrda aholining asosiy qismini kimlar tashkil etgan?

a)Dehqonlar va dvoryanlardan

b)Dehqonlar va samuraylardan

c)Fermierlar va plantatorlardan

d)Samuraylardan va dvoryanlardan

Vazifa – 2 javoblar:

Test: 1-c. 2-d. 3-b. 4-d. 5-a.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	N	N	T	T

Vazifa – 4 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	T	N	T	N

Test: 1-c. 2-d. 3-a. 4-a. 5-b.



8-MAVZU. MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI.

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda mustamlakachilik davrida Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti bo'yicha tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Mustamlakachilikning tarixiy shakllari. XVI-XVII asrlarda mustamlakachilik. Sanoat kapitalizmi davrida mustamlakachilik. Mustamlakalar iqtisodiyotini rivojlanishi.

Vazifa – 1

Esse mavzulari:

- 1.Sanoat kapitalizmi va uning mustamlaka mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri.
- 2.Mustamlakachilikning metropoliya va mustamlaka mamlakatlari iqtisodiy rivojidadagi o'rni.

Vazifa – 1 javoblar:

Vazifa – 2

(testlarni yeching)

1.Mustamlaka bu –

- a)siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan maxrum bo'lgan, metropoliyaga qaram xudud.
- b)siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan ega bo'lgan xudud.
- c)siyosiy va iqtisodiy kuchga ega bo'lgan davlat .
- d)siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi sust bo'lgan qaram davlat

2.Sharqda mustamlakachilar daromadining asosiy manbasi...

- a)Qazilma boylik xisobiga
- b)Sanoat maxsulotlarini sotish
- c)qullar mexnatidan keladigan foyda xisobiga



d)Mustamlakachilik tovarlarini qayta sotish.

3.Qul savdosini XV asrda birinchi bo‘lib qaysi millat vakillari boshlagan?

a) Fransuzlar

b)Nemislar

c)Xitoyliklar

d)Portugallar

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	Mustamlaka- bu siyosiy va iqtisodiy mustaqil bo‘lgan,lekin, metropoliyaga qaram hududdir.	
2.	Metropoliyaning mustamlaka siyosatini o‘zgarishi natijasida yangi turdagi tovarlarga (ayniqsa, xom ashyoga) ehtiyoj kamayib bordi.	
3.	Qul savdosini XV asrda birinchi bo‘lib portugallar boshlashgan	
4.	Yarimmustamlakalar – bu o‘z hukumati va boshqaruv tizimiga ega formal jihatdan mustaqil davlatdir	
5.	Mustamlakachilar daromadining asosiy manbasi Sharqda sanoat mahsulotlarini sotish emas, balki mustamlakachilik tovarlarini qayta sotish, yuqori soliqlar va badallarni undirish, mahalliy aholini talash, harbiy o‘ljaga ega bo‘lish hisoblangan	

Vazifa – 3

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

No	Savollar	
1.	Mustamlaka - bu siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum bo‘lgan, metropoliyaga qaram hududdir.	
2.	Sanoat inqilobi natijasida kapitalistik mamlakatlarda industrial sivilizatsiya shakllandi.	
3.	Qul savdosini XV asrda birinchi bo‘lib ispanlar boshlashgan	



4.	Metropoliyaning mustamlaka siyosatini o'zgarishi natijasida yangi turdagi tovarlarga (ayniqsa, xom ashyoga) ehtiyoj kamayib bordi.	
5.	Yarimmustamlakalar – bu siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum bo'lgan, metropoliyaga qaram hududdir.	

(testlarni yeching)

1.Qul savdosi markazlari asosan qaysi davlatlarga to'g'ri keladi?

- a)Amerika
- b)Afrika
- c)Yaponiya
- d)Misr

2.Yarimmustamlaka bu-?

- a)siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan maxrum bo'lish arafasida turgan davlat.
- b)siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan maxrum bo'lgan, metropoliyaga qaram xudud.
- c)O'z xukumati va boshqaruv tizimiga ega formal jihatdan mustaqil davlat.
- d)Xamkorlikda boshqarilayotgan mamlakatlar

Vazifa – 4

Nazorat savollari:

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning mustamlakachilik tizimiga ta'siri qanday bo'ldi?
2. Mustamlakalardan foydalanishda ost-indiya kompaniyalarining roli qanday bo'lgan?
3. Sanoat rivojini ta'minlashda mustamlakalardagi xom ashyolarning o'rne nimada?



Vazifa – 2 javoblar:

Test: 1-a. 2-d. 3-d.

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
N	N	T	T	T

Vazifa – 3 javoblar:

To'g'ri-noto'g'ri

1	2	3	4	5
T	T	N	N	N

Test: 1-b. 2-d.



9-MAVZU. JAHON AGRAR INQROZI VA IKKINCHI ILMIY- TEXNIK INQILOBI (XIX asr oxiri - XX asr boshi).

Mavzuning o'quv maksadi: talabalarda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jahon agrar inqrozi va ikkinchi ilmiy-texnik inqilobi to'g'risida tushuncha va tasavvurni paydo qilish.

Dars o'tish vositalari: Muammoli maruza, blits-so'rov, prezentatsiya

Mavzuning qisqacha mazmuni: Jahon agrar inqrozi va uning ahamiyati XIX asrning yakuniy choragida. Ikkinchi ilmiy-texnik inqilobi va jahon ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi.

Vazifa – 1

(testlarni yeching)

1.Qishloq xo'jaligida ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi... deyiladi:

- a) agrar inqiroz;
- b) sanoat inqirozi;
- c) moliyaviy inqiroz;
- d) ijtimoiy.

2.XIX asr oxirgi choragidagi agrar inqirozning yuzaga kelishiga...sabab bo'ldi.

- a) Sanoat sohasida ishlab chiqarishning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishdan ancha ilgarilab ketishi;
- b) Mustamlaka mamlakatlaridan ko'p miqdorda qimmatbaho metallarning olib kelinishi;
- c) Buyuk Geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi;
- d) Dengiz transportini rivojlanishi va temiryo'l tarmog'ini kengayib borishi natijasida yevropa bozorlariga Amerika, Rossiya va Hindistondan arzon va ko'p hajmda bug'doy va non kirib kelishi.



3. Ikkinchi ilmiy-texnika inqilobi natijasida iqtisodiy yetakchilik qaysi mamlakatlar qo‘liga o‘tdi:

- a) Angliya, Fransiya;
- b) AQSh, Germaniya, Yaponiya;
- c) Xitoy, Italiya;
- d) Angliya, Italiya;

(“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” savollarga javob bering)

№	Savollar	
1.	Qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi agrar inqiroz deyiladi	
2.	Agrar inqirozlar sanoat inqirozlariga nisbatan qisqaroq davom etadi.	
3.	Rossiya va Hindiston G‘arbiy Yevropaga yuqori narxlarda bug‘doyni eksport qilishiga rus va hind dehqonlari katta soliqlar hisobiga bug‘doyni juda arzon sotishga majbur bo‘lganliklari hisoblanadi	
